

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИНИНГ ТАЙЯРЛОВ ГУРУХЛАРИДА МАНТИҚИЙ О'YINLARNI ТАШКИЛ ЕТИШНИНГ МАЗМУНИ

Manzurboyeva Xafiza Imom qizi

Toshkent davlat pedagogika universiteti

Maktabgacha ta'lim fakulteti 303-guruh talabasi

Annotatsiya. Maktabgacha ta'lim tashkilotlar o'quv faoliyatida asosiy o'rinni o'yin faoliyati egallaydi. O'yin turlari orasida mantiqiy o'yinlar bola rivoji uchun alohida ahamiyat kasb etuvchi tur hisoblanadi. Bu o'yin turi nafaqat bolani zavqlantiradi, ijtimoiylashiradi, kognitiv jarayonlarni rivojlantirishi bilan bir qatorda bolani fikrlashga undovchi shart - sharoitni yaratadi.

Mashg'ulotlar jarayonida aynan, tayyorlov guruxlarida mantiqiy o'yinlarini tashkil etish orqali biz bolani maktabga samarali tayyorlaymiz.

Kalit so'zlar. Mantiq, kognitiv jarayon, qobiliyat, tasavvur, tafakkur operatsiyalari, predmetli faoliyat

Maktabgacha ta'lim sohasida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev faol tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan ishlar, qabul qilinayotgan farmon va qarorlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Maktabgacha ta'lim tizimiga alohida ahamiyat berilayotgani bezjiz emas, zero, har bir bolaning aqliy teran fikrovchi shaxs bo'lib yetishishi muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar bilan mashg'ulot o'tkazish jarayonida ular bilan birlgilikda mantiqiy o'yinlarni o'tkazish nazarda tutiladi. Eng avvalo mantiq o'zi nima degan savol barchani qiziqtirib, o'ylantiradi. Mantiq bu falsafiy muammolarni hal qilish hisoblanadi. Mantiqning mohiyati uning yechimida deb qarash mumkin. XX asrda turli xil mantiqiy rasmiy tizimlar yoki mantiqlar ishlab chiqilgan bo'lib, ularni tasniflash, bir-biri bilan qanday bog'liqligini ko'rsatish va qanday qilib ko'p qirrali bo'lishi mumkinligi muammosini hal qilish mantiq falsafasining vazifasidir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mantiqiy o'yinlar tashkil etishning maqsadi bolalarni har taraflama barkamol va yetuk shaxs bo'lishi uchun bajarilayotgan ishlarning bir qismi sifatida deb qarasak bo'ladi. Asosan katta va tayyorlov guruhida mantiqiy o'yinlar aqliy salohiyat darajasini yana ham rivojlantirish uchun foydalilaniladi. Mantiqiy o'yinlarni tashkil etish sistemasi bevosita didaktik o'yin turlari bilan bog'liq.

Polsha pedagogi Yanush Korchak nazaricha "O'yin - bu o'zini jamiyatda, koinotda topish imkoniyati" deb qaraydi. K.Grossning fikrlariga ahamiyat bersak mantiqiy o'yinlarni bolalar hayotining mazmunli o'tishi uchun asosiy vosita sifatida

nafaqat ularning kelajagi bilan bevosita bog'lanuvchi ko'prik vazifasini ham bajarishiga asos sifatida xizmat qilishi bilishimiz mumkin bo'ladi.

O'yin bola shaxsini tarbiyalashning asosiy vositasidir. O'yin orqali bolalar kattalarning mehnat tajribasini, bilim, malaka va ko'nikmalari harakat usullarini, axloq normalari va qoidalarni, mulohaza va muhokamalarini egallab oladilar. O'yinda bolaning o'z tengdoshlari va kattalar bilan bo'ladigan munosabat usullari shakllanadi, his va didlari tarbiyalanadi.

Bolalarning o'yinda birlashishlari bir necha bosqichga bo`linadi. Birinchi bosqich bolalarning «yonma-yon» o'yinining shakllanib borishidir. Bu ilk yoshli va kichik guruh bolalariga xosdir. Bunday o'yinda bolalar o`rtog`ining o'yiniga qiziqish bilan qaraydilar, birga o'ynab, «yonma-yon» o'tirganlaridan xursand bo'ladilar. Bu yoshdagi bolalarning o'yini kattalar rahbarligida ularning xulqiga ta'sir etish orqali tashkil etiladi. Ikkinchisi bosqichda bolalar o'yin orqali mexanik ravishda birlasha boshlaydilar. Bunday birlashishlar qisqa muddatli bo'ladi. Bu davrga kelib bolalardan kimning qaysi o'yinga qiziqishi aniq bo`la boshlaydi, bir xil bolalar didaktik o'yinga qiziqsalar, ikkinchilari harakatli o'yinni yoqtiradilar, uchinchilariga ijodiy o'yinlar ma'qulroq bo'ladi va h.k. Tarbiyachining vazifasi bolalarni u yoki bu o'yin bilan uzoqroq o'ynashga o`rgatishdir. Uchinchi bosqichda o'ynovchi bolalar guruhi bir-biriga do`stona munosabat va o'zaro yoqtirish orqali birlashadilar. Birga o'ynovchilar soni ko`p bo`lmasa-da, bolalar qiziqib o'ynaydilar. Bu davrga kelib bir-birlariga baho berish umumiyligi talabi yuzaga keladi. Bu bosqichda tarbiyachi bolalarning o'yinda birlashishlarining axloqiy asosini yuzaga keltirishi, ularda o'zaro yordam, o'rtoqlik, do'stlik munosabatlarini shakllantirishi lozim. Bolalar bog`chasida bolalarning uyushgan, qiziqarli va mazmunli hayotini ta'minlash uchun yosh guruhlarida rang-barang o'yinlardan foydalanish zarur. Ijodiy o'yinlar qoidalarning ichki, yashirin tabiatni bolaga harakat qilishi uchun katta erkinlik yaratadi; uning o'ynayotgan jamoa oldidagi vazifasi tayyor qoidalari o'yinlar mazmuniga nisbatan noaniqroq bo'ladi. Bu o'ynovchiga suyujetni osonlik bilan o'zgartirish, qo'shimcha rollar kiritish imkonini beradi. Ijodiy o'yinlar bolalarda katta qiziqish uyg`otadi va ularga ulkan ta'sir ko'rsatadi, biroq bolalar hayotini tashkil qilishda faqat shu o'yinlardan foydalanish xato bo'lur edi. Bolalarning qoidalari o'yinlar egallashlari katta tashkiliy ahamiyatga ega. Qoidalari harakatlarning muayyan normalarini so`ng esa bolalarning bir-biriga bo`lgan munosabatini belgilaydi, bolaga o'zini va o'zi bilan birga o'ynayotganlarni nazorat qilish imkonini beradi. Qoidalarni bajarishdagi mustaqillik o'yinda bolalarni maqsadga muvofiq tarbiyalash jarayonida shakllantiriladi. Bola o'ynayotganda bolalar jamoasi bilan muayyan munosabatda bo'ladi. O'yinning ijtimoiy ta'siri, u uyg`otadigan hislar unda tarkib topadigan munosabatlarda mujassamlashgan bo'ladi.

Mantiqiy o'yin tarbiyalanuvchini o'ylashga, topqirlilikka, ziyraklikka, mantiqiy fikr yuritishga o'rgatadi. Shu asosda o'z «men»ining shakllanishiga yordam beradi.

Shuningdek, bilishga o'rganish ehtiyojini tug'dirib, yangi o'zgarishlarga boshlaydi. Mantiqiy o'yin tashqi olam bilan muloqot qilishga yangi-yangi imkoniyatlarni ochib beradi. O'yin umumilmiy tushuncha bo'lib, falsafa, pedagogika, psixologiya, tarix nazariyasi, san'atda uziga xos tushuncha, atamalari mavjud. Umuman, ilmiy tilda o'yin dramaturgiya, tomoshalar, bayramlar, festivallar, karnavallar, badiiy ijodkorlik ma'nosida ham ishlataladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, bolaning rivojlanishi jarayonida mantiqiy o'y lash va fikrlash o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish juda alohida jihatdir. Chunki nutq va fikrlash tizimi nutq, fikrlash faoliyati orqali ushbu tizimlarga ega bo'lgan kattalar yordami va taqlid qilish orqali o'zlashtiriladi. Ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish uchun hozirgi kunda maktabgacha yoshdagি bolalarni turli faoliyat maahg'ulotlariga jalb etish yo'lga qo'yilgan. Bolalar turli xil o'yinlarda ishtirok etib, o'zlarining qobiliyat va is'tedodlarini namoyon qilishlari uchun sahna vazifasini ham bajarib beradi shu bilan birgalikda qobiliyatlarni shakllantirish uchun imkoniyat eshiklarini ham ochib bera oladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Loginova V.I., Samarukova T.G. tahriri ostida. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. 2 qismli. 1- qism. T., O'qituvchi. 1991.
2. Xasanboeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm ziyo. 2006.
3. Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna. Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyat o'rgatish. Darslik. "Metodist nashriyoti", 2023.
4. Grosheva I.V., Djanpeisova G.E., Mikailova U.T., Ismailova M.A., Kenjabaeva D.A., Gulyamova N.B., Miftaeva N.A. "*O'yin orqali ta'lim olish*" metodik qo'llanma. Toshkent 2020
5. Imamova, N. (2022). IMPORTANCE OF INDEPENDENT ACTIVITY AND CREATIVITY DEVELOPMENT IN TRAINING TEACHERS. *Science and Innovation*, 1(7), 676-679.
6. Imamova, N. Z. (2022). DEVELOPING THE CREATIVE QUALITIES OF FUTURE TEACHERS. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(04), 317-321.
7. Imamova, N. Z. (2023, January). Methodology for developing creative qualities of future teachers in the process of independent training. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 86-90).
8. Muratova, M. (2022). MAK TABGACHA TA'LIM TASHKIOTLARIDA OTA-ONALARNI TA'LIM TARBIYAVIY JARAYONDA FAOL ISHTIROKINI TA'MINLASHNING AMALIYOTDAGI HOLATI. *Science and innovation*, 1(B7), 1091-1096.
9. Khasanova, S., & Zufarova, L. (2023, June). DEVELOPMENT OF

COMMUNICATIVE SKILLS IN PRE-SCHOOL CHILDREN THROUGH THEATER GAMES. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 1-5).

10. Khasanova, S. T., & Vasila, T. (2023, May). DEVELOPMENT OF IMAGINARY-CREATIVE COMPETENCES IN THE PROCESS OF PREPARING FUTURE TEACHERS FOR PROFESSION. In Next Scientists Conferences (pp. 84-91).
11. Sultansaidova, M. (2023). SOME ASPECTS OF PREPARING CHILDREN FOR SCHOOL. International Journal of Pedagogics, 3(02), 51-55.
12. Djamilova, N., Kim, I., Marasulova, D., Imamova, N., & Ismanova, G. (2022). Ecological Culture Development of Independent Learning, Creativity, Integrative Technology and Logical Thinking. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 2524-2529.
13. Djamilova, N. (2022). FACTORS AFFECTING THE DEVELOPMENT OF LIFE STRATEGIES IN STUDENTS. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(04), 187-191.
14. Djamilova, N., Isabekova, D., & Abduqodirova, O. (2023). DIRECTING PRESCHOOL CHILDREN TO PROFESSION AT THE EARLY AGE. *Science and innovation*, 2(B9), 500-507.9.